

Tanishtiruv tadbirida

Tanishtiruv tadbirida

Joriy yilning 22 sentabr kuni Universitetimizning "Yer resurslarini boshqarish" fakulteti 1- bosqich talabalari uchun tanishtiruv yig'ilishi bolib o'tdi. Unda fakultetning yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H.Eshova, fakultet tyutori A.Xayitovalar fakultet yoshlar ittifoqi yetakchisi X.Tojiyev hamda yoshlar ittifoqi kengashi jamoasi ishtirok etdi. Uchrashuvda fakultetimizda Yoshlar Ittifoqining o'rni, vazifalari, asosiy maqsadi va talabalarga beriladigan imkoniyatlar haqida qisqacha ma'lumotlar berib o'tildi. Ushbu uchrashuvdan ko'zlangan asosiy maqsad talaba yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga qaratilgan. Bugungi yig'ilishdan talabalar o'zlarini qiziqtirgan savollariga ham javob oldilar. Shuningdek, 1 - kurslarga oliygoh bo'ylab sayohat ham tashkillashtirildi.



YeRB fakulteti Yoshlar bilan ishlash bo'yicha dekan muovini H. Eshova axboroti